

Date: 3rd March-2026

BO‘LAJAK SHIFOKORLARNI TAYYORLASH JARAYONIDA YUQUMLI
KASALLIKLAR FANINI KLASTER ASOSIDA INTEGRATIV O‘QITISH
METODIKASI

D.Z. Sobirova

“University of business and science” universiteti
o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Jahonda rivojlangan mamlakatlar tibbiy ta’lim tizimida har tomonlama yetuk va barkamol tibbiyot xodimlarni tayyorlash ularning kasbiy tafakkurini rivojlantirish orqali tibbiyotning zamonaviy yondashuvlarini o‘rganish, shuningdek tibbiy ta’limning o‘ziga xos mexanizmlarini tadbiq etishga, jumladan, ta’limga doir tadqiqotlar olib borish, hamda dunyo tibbiyotida xorijiy talabalarning kasbiy madaniyati, kasbiy munosabati bevosita uning kasbiy deontologiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, hamda “Tibbiy axloqning xalqaro kodeksi”da belgilangan vazifalarni zamonaviy tibbiyotning asosiy yo‘nalishlarini belgilab olishlarida, tibbiy ta’limning o‘z oldiga qo‘ygan strategiyasini belgilash zaruratini ko‘rsatmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalarida, AQSHning Djon Xopkins universitetida tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishda zamonaviy didaktik materiallarni qo‘llash masalasi bo‘yicha dasturi ishlab chiqildi, shuningdek, Buyuk Britaniyaning Kent universitetida mutaxassilik fanlar bo‘lajak shifokorlar tibbiy deontologiyasining ajralmas qismi sifatida zamonaviy Yevropa tibbiyoti yutuqlari bilan o‘zaro muvofiqlashtirildi, pedagoglik kasbidagi insoniy munosabatlar tizimi, yerkin tajriba almashinuvi va madaniyatlararo o‘zaro tushunish texnologiyasiga asoslanganligi, shuningdek eksklyuziv kompetensiyani talabaning layoqati bilan o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash orqali bo‘lajak shifokorlarning kasbiy layoqatlarini rivojlantirish va uni amaliyotda qo‘llay olishi muhim dolzarblik kasb etadi.

Bugungi kunda ilmiy texnik taraqqiyot va zamonaviy texnologiyalarning paydo bo‘lishi, shuningdek, yangi diagnostika usularining kashf qilinishi va kasalliklarni davolash tibbiyotni shunchalik boyitdiki, natijada unda yuz yillar oldin mavjud bo‘lgan “shifo san’ati” o‘rniga zamonaviy tibbiyot vujudga keldi. Xususan dunyo bo‘yicha birinchi o‘ringa chiqqan “Yuqumli kasalliklar” soxasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, shifokorlar bu kasallikni erta boskichlarda aniqlashgan, uning sababini topishga va eng muhimi – profilaktik chora tadbirlarni o‘tkazish orkali kasallikni oldini olishga harakat qilinadi.

Yuqumli kasalliklar — bu inson organizmiga kirib, uning hujayralarida ko‘payib, kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlar (bakteriyalar, viruslar, zamburug‘lar, parazitlar) sabab bo‘lgan kasalliklardir. Bu kasalliklar turli yo‘llar bilan yuqishi mumkin, jumladan

1. Havodan (aerozol): Masalan, gripp, COVID-19, sil, qizamiq kabi kasalliklar havo-tomchi yo‘li bilan yuqadi.

2. Oziq-ovqat yoki suv orqali: Dizenteriya, ich terlama, gepatit A kabi kasalliklar ifloslangan suv yoki oziq-ovqat orqali yuqadi.



Date: 3rd March-2026

3. Kontakt (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita): Kontakt orqali, jumladan teri orqali yoki biron bir narsaga tegib, masalan, qichima yoki zamburug'lar tarqalishi mumkin.

4. Qon va tana suyuqliklari orqali: Virusli hepatitlar, OITS (VICH-infeksiya) kabi kasalliklar qon yoki tana suyuqliklari orqali yuqadi.

5. Hayvonlar yoki hasharotlar orqali: Malariya, lyaym borrelyozi kabi kasalliklar chivinlar yoki boshqa hasharotlar tomonidan yuqadi.

Tibbiy ta'limda "Yuqumli kasalliklar" fanini o'qitish jarayonida o'qituvchi talabalarning umumiy madaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun bir qator vazifalarni qo'yadi. Natijada, bo'lajak mutaxassis kerakli bilimlar bilan birgalikda uni amaliy qo'llash uchun yondashuvni shakllantirishi kerak, buning natijasi ko'p qirrali tajribani o'zlashtirishdir va oliy o'quv yurtida kasbiy tayyorlash mezonlari kasbiy kompetensiya, faol ijtimoiy moslashish qobiliyati, mustaqil hayot tanlash qobiliyati, mehnatga kirishga tayyorlik va kasbiy mahoratni oshirishni davom ettirish, ya'ni mutaxassislar tayyorgarligi bilan bog'liq bo'lishi lozim.

Adabiyotlar taxlili asosida *klaster* tushunchasiga turli soxalardagi berilgan ta'rif va tasniflar o'rganildi.

Klaster – o'zaro bog'liq korxonalarni birlashtirishning bir shakli bo'lib, bu hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Tashkillashtirish shakli jihatidan, klaster – vertikal ravishda integratsiyalangan tuzilma deyish mumkin.

"Klasterlarning shakllanishida davlatning roli muhim o'rin tutadi. Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va boshqarishda klasterlardan foydalanish bo'yicha Ma'lum tajriba to'plangan.

Evropa mamlakatlari va AQSH da bu strategiya keng qo'llanilmoqda. Klasterlar Buyuk Britaniya, Gollandiya, Germaniya, AQSH, Daniya, Fransiya, Italiya, Finlyandiya, 'indistonda yaxshi rivojlangan. Daniya, Finlyandiya, Shvetsiya sanoatini klasterlar to'la egallagan. Germaniyada yaqin vaqtgacha mintaqaviy klasterlar rivojlanishi davlat aralashuvizis kechar edi. Biroq 2003-yilda hukumat klaster tashabbuslariga jiddiy e'tibor qaratdi. Bu, birinchi navbatda, yuqori texnologiyali sohalarni loyihalashda amalga oshirildi. Davlat nafaqat mahalliy, balki boshqa manbalar hisobidan sanoat va ilmiy markazlar kuch-g'ayratini birlashtirishni ko'zda tutmoqda.

Klaster – hududiy konsentratsiyalashuvga asoslangan va texnologik zanjirga bog'langan tovar va xom ashyo yetkazib beruvchilar, asosiy ishlab chiqaruvchilarni birlashtirgan industrilashgan majmua.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, barcha sohalarda klaster tizimini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Klaster tizimlarini yaratish ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyalashtirish hajmini ko'paytiradi, sifatini yaxshilaydi, ilmiy tadqiqot ishlarining texnik ta'minoti darajasini yuksaltiradi, investitsiyaviy tashqi loyihalarda ishtirok etish, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Bundan tashqari, klaster tizimida ta'lim va ilmiy-tadqiqot markazlari yangi ilmiy - uslubiy ishlanmalarni yaratish, ularni qisqa muddatda sinovdan o'tkazish, ishlab chiqarish va ilmiy izlanishlardagi xodimlar hamda mutaxassislar mehnatlarini ko'proq rag'batlantirish, yangi tovarlarni O'zbekiston brendi bilan ixtiro



Date: 3rd March-2026

qilish uchun keng imkoniyatlar va sharoit paydo bo'ladi. Shuningdek, mamlakatimizda xalqaro klaster koordinatorlarini tayyorlash ilmiy markazlari va klaster projeklari bo'yicha Kengashlar paydo bo'ladi.

O'zbekiston tibbiyot tizimida klasterlarni shakllantirish masalasi mamlakat miqyosida emas, balki mintaqalar – viloyatlardagi tibbiy – ijtimoiy shart - sharoitlar asosida, klaster nazariyasining mohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilayotgani eng oqilona yo'llardan biridir. Tibbiyotda yangicha, zamonaviy yondashuvlarni joriy etmasdan turib, yuqori natija ega raqobatbardosh kadrlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'z mohiyatiga ko'ra, tibbiyot uchun yangi bo'lgan, tibbiyotning ilg'or turi klaster sxemasini yaratish va joriy etish asosida klaster shaklidagi yopiq zanjirdan iborat..

2018-yil tibbiy klasterlarni tashkil etishga doir faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy bazani yanada takomillashtirishni hisobga olgan holda ishlab chiqarishni tashkil etishning mexanizmini shakllantirish yuzasidan takliflar tayyorlanishi ham nazarda tutilgan.

Bugungi kunda *Pedagogik ta'lim klasteriga* – muayyan jug'rofiy hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida sub'ektlar, texnologiya va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm" sifatida ham qaralmoqda.

Demak sohaga oid manbalarga tayanib aytishimiz mumkinki, "KLAUSTER" atamasi ("CLUSTER" ingl. - to'plam, to'p, guruh, kontsentratsiya, guruhlarga to'plash, to'plamlarda o'sish) axborot texnologiyalari sohasidan kelib chiqqan va ma'lum xususiyatlarga ega, mustaqil birliklar sifatida qaralishi mumkin bo'lgan bir turdagi elementlarning birlashishini anglatadi. Asosan iqtisodiy tarmoqlarga nisbatan qo'llanuvchi "klaster" terminining ta'lim sohasiga kirib kelishi ushbu tushunchaning turli mintaqalarda tadqiqini, uning mazmun-mohiyatini o'rganishni taqozo etadi. Zero, muayyan tushuncha turli makon va zamonda turlicha talqin etilishi tabiiy jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Yuqumli kasalliklar bo'yicha klinik protokollar to'plami. – Toshkent, 2021.
4. Ismoilov A., Karimov H. Yuqumli kasalliklar. Oliy tibbiyot ta'lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
5. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M. Pedagogik kompetentlik va innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: "Sano-standart", 2016.
6. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "Fan", 2017.



Date: 3rd March-2026

7. World Health Organization (WHO). Infection Prevention and Control in Health Care. – Geneva: WHO Press, 2022.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

